


19. Ko'p xonali sonlarni ayirish



Yondosh mavzu:
Namangan viloyati

Qo'shish va ayirish,
sonlar qatori,
siniq chiziqning uzunligi



1. Tushirib qoldirilgan sonlarni ayting.

- a) 38 650 279 sonining yuz minglar xonasida _____ raqami turibdi.
- b) 278 999 sonidan keyin _____ soni keladi.
- d) _____ soni 692 000 sonidan oldin keladi.
- e) Eng katta yetti xonali son – _____.
- f) Eng kichik to'qqiz xonali son – _____.
- g) 67 000 000 sonida _____ ta yuz minglik bor.
- h) 32 895 sonida _____ ta to'liq o'nlik bor.



2. Qamchiq dovonidan ish kunlari kuniga 22 300 ta avtomobil, dam olish kunlari undan 1 500 ta kam avtomobil o'tadi. Dam olish kunlarida dovondan nechta avtomobil o'tadi?



3. Toshkentdan O'shgacha bo'lgan eski yo'lning umumiy uzunligi 532 km ga teng. Qamchiq tunneli orqali o'tadigan yangi yo'l undan 90 km ga qisqaroq. Yangi yo'lning uzunligi qancha?



4. Namuna bo'yicha yozing.

Namuna:

$$13 \text{ km } 560 \text{ m} = 13 \text{ 000 m} + 560 \text{ m} = 13 \text{ 560 m}$$

- a) 5 km 180 m b) 7 km 729 m d) 10 km 256 m
- e) 12 km 600 m f) 63 km 18 m g) 29 km 5 m

19. Ko'p xonali sonlarni ayirish



5. Xaritada Toshkentdan O'shgacha bo'lgan yo'l siniq chiziq ko'rinishiga ega. Siniq chiziqning uzunligini o'lchang.



Xaritada siniq chiziqning 1 santimetri 20 kilometrni anglatadi. Yo'lining uzunligi qancha?



6. Qulay usulda hisoblang.

- a) $12\,280\text{ l} + 10\,160\text{ l} + 15\,120\text{ l}$
- b) $(5\,600\text{ kg} + 2\,900\text{ kg}) - 1\,600\text{ kg}$
- d) $9\,700\text{ m} - (3\,900\text{ m} + 1\,700\text{ m})$
- e) $5\,000\text{ cm} - 1\,230\text{ cm} - 1\,170\text{ cm}$



7. Qor ko'chishi tufayli dovondagi avtoyo'l yopilgan. Jadvalda yo'lining ochiq bo'lgan vaqtlari ko'rsatilgan. Qaysi haftada yo'l ko'proq ochilgan?

1-hafta

Dush.	2 h 30 min
Sesh.	2 h 15 min
Chor.	1 h 45 min
Pay.	3 h 10 min
Jum.	2 h 40 min
Shan.	1 h 55 min
Yaksh.	2 h 20 min

2-hafta

Dush.	1 h 40 min
Sesh.	3 h 05 min
Chor.	1 h 15 min
Pay.	2 h 10 min
Jum.	1 h 50 min
Shan.	2 h 35 min
Yaksh.	2 h 10 min

19. Ko'p xonali sonlarni ayirish



8. Agar A , B , C va D nuqtalar bir to'g'ri chiziqda yotsa, daftaringizga $AB = 3 \text{ cm } 4 \text{ mm}$, $BC = 5 \text{ cm } 3 \text{ mm}$, $CD = 4 \text{ cm } 5 \text{ mm}$ kesmalarni chizing. AD kesmaning uzunligi qancha bo'lishi mumkin?



9. Besh o'rtoq bugun haftaning qaysi kuni ekanligi to'g'risida gaplashdi. Amir: "O'tgan kuni juma edi", dedi. Vali: "Indinga seshanba bo'ladi", dedi. Suhrob: "Kecha shanba edi", dedi. Dilshod: "Ertaga dushanba bo'ladi", dedi. Rustam: "Bugun payshanba", dedi. Ulardan qaysi biri adashdi?



10. Metrlarga aylantiring va hisoblang.

- a) $6 \text{ km } 280 \text{ m} + 12 \text{ km } 925 \text{ m} - 14 \text{ km } 936 \text{ m}$
- b) $65 \text{ km } 602 \text{ m} - 63 \text{ km } 67 \text{ m} + 42 \text{ km } 109 \text{ m}$
- d) $90 \text{ km} - (29 \text{ km } 1 \text{ m} - 12 \text{ km } 670 \text{ m})$



11. Yo'lining ko'rinishi – bu haydovchi yo'l bo'ylab harakatlanish vaqtida oldinda ko'rish mumkin bo'lgan masofa. Yorug' kunda yo'lining ko'rinishi 10 km. Tuman vaqtida yo'lining ko'rinishi – 200 m. Tuman vaqtida yo'lining ko'rinishi qanchaga pasayadi?

